

Date: 19th November-2024

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IDROKNI KUCHAYTIRUVCHI
PSIXOLOGIK MASHG'ULOTLAR**

Sharapova Dildora Baxtiyorovna

Internetional school of finance and technology science instituti o'qituvchisi
Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa do'tiri (PhD), sharopovad@isft.uz

Shodiyeva Sevinch

Internetional school of finance and technology science instituti, Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi, 24-BT-01 guruh talabasi, setorakattabekova09@gmail.com

Isoqova Shoxista

Internetional school of finance and technology science instituti, Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi, 24-BT-01 guruh talabasi, setorakattabekova09@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik usullar va mashg'ulotlarga ba'gishlangan bo'lib, ta'lim jarayonida idrok va tasavvur integratsiyasi orqali o'qitishning yangi metodlarini taklif qiladi.

Kalit so'zлari: Diqqat, Xotira, Mantiqiy tafakkur, ijodiy qobiliyatlar, interfaol usular, innovatsiyon yondashuv, dars jarayoni.

Аннотация: Данная статья посвящена психологическим методам и упражнениям, направленным на развитие познавательной деятельности учащихся младших классов, и предлагает новые методы обучения посредством интеграции восприятия и воображения в учебный процесс.

Ключевые слова: Внимание, память, логическое мышление, творческие способности, интерактивные методы, инновационный подход, учебный процесс.

Annotation: This article is devoted to psychological methods and exercises aimed at developing the cognitive activity of primary school students, and offers new teaching methods through the integration of perception and imagination into the educational process.

Keywords: Attention, memory, logical thinking, creativity, interactive methods, innovative approach, educational process.

Idrok – tashqi dunyo haqidagi tasavvurlarni qabul qilish, tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish qobiliyati, shuningdek ushbu kognitiv jarayon o'rganishning muhim elementidir. Idrok va tasavvur integratsiyasi orqali diqqat, xotira va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlash, shuningdek, o'quvchilarning idrok faoliyatini yanada rivojlantirishga erishish mumkin. Taklif etilishi nazarda tutilgan mashg'ulotlar bolalarning kognitiv va emotsiyal rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, pedagogik faoliyatda samarali ta'lim metodi sifatida qo'llash imkoniyatini yaratadi. Ushbu metodlar ta'lim orqali psixologik ta'sir ko'lagini o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ta'sirini ijobiy omil sifatida ko'rib chiqishga qaratiladi.

**ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION ON THE BASIS OF
INNOVATIVE TECHNOLOGIES.
International online conference.**

Date: 19th November-2024

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idrokini rivojlantirishda o‘qituvchilar uchun quyidagi ta’lim metodlaridan foydalanish taklif etiladi:

1. Individual yondashuv: Har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali o‘quvchilarning idrokini har tomonlama rivojlantirishga imkon yaratadi.

2. Muammoli ta’lim: Muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal etishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

3. Interfaollik va faollik: Dars jarayonida o‘quvchilarning faol, mustaqil va ijodiy faoliyatlarini ta’minlaydigan interfaol usullar, metodlar va texnologiyalardan foydalanish nazarda tutildi.

4. Motivatsiya va qiziqish uyg’otish: O‘quvchilarning bilim olishga, o‘rganishga, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni namoyish etishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyasini rag’batlantiruvchi muhitni yaratishga qaratiladi.

5. Guruhlarda ishlash: O‘quvchilarning guruh bo‘lib ishlashi, hamkorlikda yechim topishi, muloqot va muammolarni birgalikda hal qilish ko’nikmalarini rivojlantirish maqsad qilandi.

Ushbu yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idrokini har tomonlama rivojlantirishga, ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idroki va psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash juda muhim. Buning bir qator psixologik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, asosiy metodlardan tashqari qo’shimcha tavsiya sifatida darslarni 20-25 daqiqalik bloklarga bo‘lish, dam olish daqiqalarini rejalashtirish, jismoniy faollikni targ‘ib qilish bo‘lsa, ushbu yondoshuvlarni amalda qo’llash uchun ta’limning bir qator tamoyillariga rioya qilish, ya’ni:

1. Izchillik prinsipiga amal qilish

2. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish


3. Muntazam ravishda natijalarni baholash kabilarni ta’limning asosiy talabi sifatida keltirib o’tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayonda idrokini rivojlantirish uchun bir qator asosiy psixologik yondoshuvlarni taklif etamiz (1-rasm).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida idrok xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan asosiy psixologik yondoshuvlar

**ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION ON THE BASIS OF
INNOVATIVE TECHNOLOGIES.
International online conference.**

Date: 19th November-2024



Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozim-ki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idrokini kuchaytirish murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Bunda ta’limning o‘rni beqiyos

Date: 19th November-2024

bo‘lib, darslarda foydalanish uchun bir qatoro‘ziga xos uslublarni qo’llash tavsiya etiladi. Birinchidan, kompleks yondashuv orqali – psixologik va pedagogik usullarni birgalikda qo’llash, nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirish, tizimli va izchil ishlash zaruriyat; ikkinchidan, individual rivojlanish – har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, qobiliyat va imkoniyatlardan kelib chiqib ish olib boorish, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim metodlarini qo’llash; uchinchidan, zamonaviy talablar – innovatsion texnologiyalardan foydalanish, interfaol metodlarni joriy etish, o‘quvchilarining zamonaviy ehtiyojlarini inobatga olish; to’rtinchidan, natijadorlik – muntazam monitoring olib borish, erishilgan yutuqlarni baholash, kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish; beshinchidan, hamkorlik - o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ota-onalar bilan doimiy aloqani ta‘minlash, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish kabilardan iborat. Ushbu yondashuvlarni to‘g‘ri va samarali qo’llash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idrok qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirish, ularning bilish jarayonlarini faollashtirish va kelajakda muvaffaqiyatli ta‘lim olishlari uchun mustahkam poydevor yaratish mumkin. Shuningdek, ushbu jarayonga ota-onalarni jalb etish, ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adizova T.M. "Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalar". – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020.
2. Davletshin M.G. "Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi". – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
3. Nishonova Z.T., Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi". – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017.
4. To’laganova G.Q. "Pedagogik psixologiya". O‘quv qo’llanma. – Toshkent: TDPU, 2018.
5. G’oziyev E.G. "Umumiy psixologiya". – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
6. Baxtiyarovna, S. D. (2022). Xotira: mustahkamlash yo’llari, usullari va vositalari. Scientific Impulse, 1(4), 328-333.
7. Baxtiyarovna, S. D., Gavhar, G., & Jasmina, N. (2022). Pedagogik faoliyatda kreativ yondoshuv. Scientific Impulse, 1(3), 385-388.
8. Baxtiyarovna, S. D. Shukurullo oglu, NJ (2022). Tibbiyot xodimlarining hissiy-emotsional xususiyatlari. Scientific Impulse, 1(3), 439-443.
9. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. К. (2022). Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик ривожланиши. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 681-689.
10. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). Psixologiyada ong va ong haqidagi nazariyalar. Scientific Impulse, 1(8), 857-860.